

## TURIZM SOHASIDAGI MUAMMOLAR

Ruslan Musaev

Samarqand davlat chet tililar instituti talabasi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada turizm sohasidagi muammolar, ularni bartaraf etish usullari va turizm sohasining rivojlanishi bo'yicha muhim masalalar ko'rib chiqildi.

**Kalit so'zlar:** turizm, muammo, yechim, rezident, sayyoh, kartochna, navigatsiya va axborot ta'minoti.

“Turizm - iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri.

Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur. Buni davrning o'zi taqozo etmoqda.”

### Sh.M.Mirziyoyev

Turizm hammamizga ma'lum hodisa. Insoniyat paydo bo'lgandan beri uning vakillari yoki guruhlarini sayyoramizning u yoki bu qita'siga, qit'alardagi o'lkalarga, ellarga, mamlakatlarga sayohat qilishgan. Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Turizm sohasi, O'zbekistonning iqtisodiyoti uchun muhim hisoblanadi. Ushbu sohada istiqbolli rivojlanish va xalqaro talablarni qondirish maqsadida ko'plab imkoniyatlar yaratilmoqda. Biroq, har narsaning ham ijobiy ham salbiy tomoni bo'lgani kabi, turizm sohasida ham muammolar mavjud. Bunday muammolar safiga: aviachiptalarning qimmatligi, pul mablag'lari (dollar, yevro, so'm va h.z.) mexmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifatining yuqori emasligi, ovqat shaxobchalaridagi muammolar, milliy turizm imijini yaratish kabilarni kiritishimiz mumkin.

Turizm statistika ma'lumotlarining mukammal bo'lishi, ma'lumotlarning aniqligi mamlakatga, nafaqat, chet el investorlari, balki, rezidentlarining ham qiziqishini uyg'otadi. Bunda, eng avvalo, turizmni rivojlantirishdagi asosiy masalalardan biri xalqaro miqyosda sohaga doir bo'lgan ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish hisoblanadi. Biroq, xalqaro miqyosda statistik ma'lumotlarni jamlash jarayonida huquqiy-me'yoriy hujjatlar bilan ishlash dunyo mintaqalari, hattoki, mamlakatlarida



turlicha bo'lib, bu sohani rivojlantirish hamda boshqarishni takomillashtirish yo'lidagi eng katta muammolardan biridir .

Ushbu muammo o'z yechimini topishi natijasida dunyo bo'yicha, turizm rivojlanishi qonuniyatlari hamda o'zgarishlarini amaliyotga vaqt hamda hudud talqinida tadbir etish kabi imkoniyatlarni beradi. Shu tufayli 1980–90 yillardan buyon mazkur muammoga xalqaro miqyosda e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, 1998-yilda Butunjahon Turizm Tashkiloti tomonidan “Turizm bo'yicha iqtisodiy Hisobot” nashri e'lon qilinib, uning bir bo'limi sohaning aynan shu muammosiga bag'ishlandi Osiyo mamlakatlaridan biri bo'lgan Qozog'istonda ham sayohatchilar fuqarolik hamda turar joydan ma'lum muddatga uzoqlashish talablari bo'yicha hisoblangan bo'lsa, mamlakatning yangi hisoblash tizimiga o'tishi natijasida, ya'ni yuqoridagi talablarga sayohatchining maqsadiga ko'ra tasniflash talabi ham qo'shilganidan so'ng ularning sonida kamayish va sohaning o'sish tendensiyalarida sustlashish kuzatildi. Bundan tashqari, “haqiqiy” sayyohlar soni kamayganiga mos ravishda Qozog'iston Respublikasi eksportida turizm ulushi o'tgan yilga nisbatan 9.6 foizga pasaygan. Qozog'iston Respublikasi chegara xizmati ma'lumotlariga ko'ra, barcha kirib kelishlarning 78 foizi yaqinlarni ziyorat qilish bo'lib, 20 foizi biznes turizm, bor-yo'g'i 2 foizi “sof” turistlar bo'lib hisoblanadi.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, keyingi yillarda sayyohlarni hisobga olish tizimida Yevropa Ittifoqining ko'pgina mamlakatlariga qaraganda ancha takomillashgan uslub yo'lga qo'yilgan bo'lib, mazkur usul yordamida mintaqada sayyohlik ishlarini tartibga solish ishlari ancha osonlashgan. Tashkillashtirilmagan, ya'ni, sayyohlik firma hamda agentliklari yordamidan foydalanmagan holda sayohat qiluvchi turistlardan kirib keluvchi daromad hisobini olib boruvchi sayyohlik mintaqalariga ega bo'lgan Yevropa mamlakatlarida “satellit” tizimi amal qilib, so'rov bazasiga ega bo'lgan bank tizimi yordamida ular soni hisoblab boriladi. Bunda har bir tovar yoki xizmatga mos keluvchi maxsus kodlar o'rnatilgan bo'lib, ulardan foydalanib, kartochka (kredit yoki depozit) orqali haqini to'lagan vaqtda sayyoh haqidagi axborot bazaga tushadi va iste'mol hisobi olib boriladi. Mazkur kartochka orqali sayohatchining turar joyi, xizmat yoki tovar turidan foydalangan vaqtda uning qaysi guruhga mansubligiga ko'ra sayohatchining maqsadi aniqlashtiriladi va ma'lumotlar bazasiga tog'ridan-to'g'ri joylanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda mazkur chora-tadbirlarni birdan amalga oshirish imkoniyatining mavjud emasligi, bundan tashqari, sayohatchilar sonini to'g'ri hisoblash maqsadida ularga qo'shimcha talablar qo'yilishi yoki qat'iy nazorat ostiga olinishi bir qator noroziliklarni keltirib chiqarishi mumkin.



O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi turizmning rivojlanishi va mamlakatning sayyohlik salohiyatidan yetarli darajada foydalanishga to‘siq bo‘layotgan asosiy sabablarni ma‘lum qildi. Muammolar va yechimlar O‘zbekiston Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasida o‘rta istiqbolda turizmni rivojlantirish bo‘yicha Kontsepsiyasini hayotga tatbiq etish choralari to‘g‘risida»gi qarori loyihasida taqdim etilgan.

Hujjatda aytilishicha, milliy sayyohlik mahsulotlarining raqobat bardoshligiga yashash va aviaparvozlar uchun yuqori narxlar, servis darajasining cheklanganligi, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarning nomukammalligi, qulay sayyohlik axborot ta‘minoti (navigatsiya va axborot markazlari) mavjud emasligi, malakali kadrlarning tanqisligi, O‘zbekistonni xorijda targ‘ib qilishning zaifligi jiddiy muammolardir.

Bundan tashqari, sayyohlar uchun ma‘muriy va iqtisodiy to‘siqlar, viza tartiblari, turizm faoliyati bilan shug‘ullanishda (litsenziyalash va sertifikatlash) davlat nazoratining o‘ta kuchli ekani shunday muammolar sirasiga kiradi.

«Turizmning o‘shish sur‘atini va iqtisodiyotning boshqa sohalari, aholi farovonligi o‘shishiga ijobiy ta‘sirini e‘tiborga olgan holda hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha choralar qabul qilish zaruratidan kelib chiqib, turizm sohasi mamlakat taraqqiyotining barqaror o‘shishida eng kuchli vositalardan biri bo‘lishi kerak», — deya ta‘kidlanadi loyihada.

## **XULOSA**

Yuqorida keltirilgan fikrlarni hisobga olgan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, turizm sohasidagi muammolarni bartaraf qilishda, turizm sohasining rivojlanishi va xalqaro darajada taniqlikka erishishi hamda mamlakatimizning iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishi mumkin. Sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2016-yil 2-dekabrda "O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida belgilandi. Prezidentning 2017-yil 16-avgustdagi qarori bilan 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.



**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.SH.Safarov, S.A.Abduhamidov- "TURIZM: NAZARIYA VA AMALIYOT", (Darslik) Toshkent - «Barkamol fayz media» - 2018
2. Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебник. М.: Аспект Пресс, 2002. — 211 с.
3. М. А. Mirzayev M. T. Aliyeva "Turizm asoslari" "O'zbekiston faylasuflar jamiyati" nashriyoti, 2011.
4. <https://kun.uz/uz/news/list?f=tag&name>
6. [http://www.tourlib.net/statti\\_tourism/yachmeneva4.htm](http://www.tourlib.net/statti_tourism/yachmeneva4.htm)
7. <https://moluch.ru/archive/260/60089/>
8. <http://www.informburo.kz/stati/v-2018-godu>

